

BANKLARNING MOLIYAVIY INNOVATSION XIZMATLARIDAN FOYDALANISHINING ILG'OR XORIJ TAJRIBASI

Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi

TDIU Bank ishi kafedrasi dotsenti

[*m.mahmudova0112@gmail.com*](mailto:m.mahmudova0112@gmail.com)

[*https://orcid.org/0000-0002-5777-6606*](https://orcid.org/0000-0002-5777-6606)

ADVANCED FOREIGN EXPERIENCE OF BANKS USING FINANCIAL INNOVATION SERVICES

Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi

Associate professor of Banking department, TSUE

[*m.mahmudova0112@gmail.com*](mailto:m.mahmudova0112@gmail.com)

[*https://orcid.org/0000-0002-5777-6606*](https://orcid.org/0000-0002-5777-6606)

JELClassification: G22 O31

Annotatsiya. Ushbu maqolada shiddat bilan rivojlanayotgan moliya sohasihaga kirib kelayotgan yangi tendensiyalar, xususan FinTech mahsulotlar va ularning tavsiflari, afzallik va kamchilik tomonlari keltirilgan. Moliyaviy institutlar ushbu transformatsion tendensiyalarga moslashishga harakat qilar ekan, moliyaviy innovatsiya xizmatlarini qabul qilish va amalga oshirishni tushunish juda zarur bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, ushbu innovatsiyalarni muvaffaqiyatli yo'lga qo'ygan ilg'or xorijiy tajribalaridan foydalanish o'z xizmatlar sifatini yaxshilashni maqsad qilgan institutlar uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. Moliyaviy institutlarning turli yo'nalishlariga, uni amalga oshirishga va natijada bank xizmatlar sifatini yaxshilashga e'tibor qaratilib, bank faoliyatining rivojlanayotgan tomonlari keng o'rganilib kelinmoqda. Moliyaviy texnologiya (FinTech) an'anaviy moliya va bank amaliyotlarini o'rnini egallashga harakat qilar ekan, olimlar bu yutuqlarning global moliyaviy institutlarga

ta'siri va oqibatlarini keng o'rganishga harakat qilmoqdalar. Shuningdek bu yangi tendensiyaning an'anaviy moliya tizimi va tijorat banklariga ta'siri yoritilgan. An'anaviy moliya sektoridan farqli ravishda zamonaviy va innovatsion yechimlar berib kelayotgan ushbu yangi tizimning xorijdagi tajribalari ham o'rganilgan va moliyaviy innovatsion xizmatlardan foydalanish uchun xulosa va takliflar ham keltirilgan.

Abstract. This article presents the new trends entering the rapidly developing financial industry, particularly FinTech products and their descriptions, advantages and disadvantages. As financial institutions strive to adapt to these transformational trends, understanding the adoption and implementation of financial innovation services will be critical. In this regard, the use of advanced foreign experiences that have successfully implemented these innovations will serve as a valuable resource for institutions aiming to improve the quality of their services. Attention is paid to various directions of financial institutions, their implementation and, as a

result, improvement of the quality of banking services, and the developing aspects of banking activity are widely studied. As financial technology (FinTech) attempts to replace traditional finance and banking practices, scholars are attempting to extensively study the impact and implications of these advances on global financial institutions. The impact of this new trend on the traditional financial system and commercial banks is also highlighted. The foreign experiences of this new system, which provides modern and innovative solutions unlike the traditional financial sector, are also studied, and conclusions and suggestions for using innovative financial services are presented.

Kalit so'zlar: *moliyaviy innovatsiya, FinTech, raqamlashtirish, an'anaviy banklar, moliyaviy xizmatlar, moliya institutlari.*

Keywords. *financial innovation, FinTech, digitization, traditional banks, financial services, financial institutions.*

Kirish. Bank sektori uzluksiz texnologik taraqqiyot va moliyaviy innovatsiyalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Yuzma-yuz muloqotlar va cheklangan mahsulot takliflari bilan tavsiflangan an'anaviy bank modellari samaradorlik, foydalanish imkoniyati va mijozlarni jalb qilishni kuchaytiruvchi raqamli yechimlar ustida ishlamoqdalar. Mobil banking, blockcheyn, katta ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt kabi texnologiyalarning integratsiyasi nafaqat banklarning ishlash uslubini o'zgartiribgina qolmay, balki mijozlarning tezlik, qulaylik va moslashtirilgan xizmatlarga nisbatan kutishlariga ham ijobiy javob berib kelmoqda.

Moliyaviy institutlar ushbu

transformatsion tendensiyalarga moslashishga harakat qilar ekan, moliyaviy innovatsiya xizmatlarini qabul qilish va amalga oshirishni tushunish juda zarur bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, ushbu innovatsiyalarni muvaffaqiyatli yo'lga qo'ygan ilg'or xorijiy tajribalaridan foydalanish o'z xizmatlar sifatini yaxshilashni maqsad qilgan institutlar uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Material va metod. Moliyaviy institutlarning turli yo'nalishlariga, uni amalga oshirishga va natijada bank xizmatlar sifatini yaxshilashga e'tibor qaratilib, bank faoliyatining rivojlanayotgan tomonlari keng o'rganilib kelinmoqda. Moliyaviy texnologiya (FinTech) an'anaviy moliya va bank amaliyotlarini o'rnini egallashga harakat qilar ekan, olimlar bu yutuqlarning global moliyaviy institutlarga ta'siri va oqibatlarini keng o'rganishga harakat qilmoqdalar.

Moliyaviy innovatsion xizmatlar rivojlanayotgan bir muhitda moliyaviy konsepsiya tadqiqotning muhim sohasi sifatida paydo bo'ldi. Zamonaviy texnologiyalar moliyaviy xizmatlarni qayta shakllantirishda davom etar ekan, olimlar va tadqiqotchilar ushbu innovatsiyalarning bank sektori, moliya bozori va iste'molchilarning xatti-harakatlariga ta'sirini o'rganib kelmoqdalar.

1972-yilda Bretten-Vuds kelishuvining tugatilishi raqobatning sezilarli darajada o'sishiga turtki bo'ldi. Smith, Smithson va Wilford foiz stavkalari, valyuta kurslari va tovarlar narxining o'zgaruvchanligini tavakkalchilik va moliyaviy innovatsiyalar bilan bog'liqligini hujjatlarda aks

ettirishgan¹.

Levich va boshqa bir qator olimlar (1988)² moliyaviy innovatsiyalar rivojlanishidagi so'nggi voqealarga keng baho bergan, shu jumladan ularning moliyaviy barqarorlikka ta'siri va milliysiyosatini ishlab chiqqanlar. Uning nazariyasi qaysi moliyaviy mahsulot va jarayon AQSH va xalqaro moliya bozorlarini so'nggi 20-25 yil davomida o'zgartiradi kabi savolga yechim bo'la olgan.

Verghese (1990)³ moliyaviy innovatsiyalarning yangi to'liq xususiyatlariga va ularni qanday, qaysi xarajatlar evaziga rivojlanganini yaqindan ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, moliyaviy o'zgarishlar va innovatsiyalardan olingan xulosalarni ham aniqlashni muhim hisoblagan. U keng qamrovli tadqiqot ishini moliyaviy innovatsiyalarni o'rganish bilan Hindistonda boshlagan.

Marshall va Bansal (1992)⁴ ortib borayotgan xavf sabablarini tasnifladilar: tashqi (ekologik) va firma ichidagi. Bu tasniflash tavakkalchilikning ortishi va moliya sohasidagi asosiy o'zgarishlar bilan birgalikda moliyaviy innovatsiyalarning tez o'sishi uchun to'g'ri muhitni yaratish sabablarini o'rganish uchun foydalanilgan.

¹Smith Clifford W, Jr., Smithson Charles W, and Wilford D. Sykes (1990), *Managing Financial Risk*, Harper Collins Publishers.

² Richard M. Levich, Gerald Corrigan E, Charles S. Sanford Jr, George J. Votja (1988), "Financial Innovations in International Financial Market" in *The United States in the World Economy*, Editor: Martin Feldstein, University of Chicago Press, ISBN: 0-226-24077-0, 215 – 277

³ Verghese, S K (1990), *Financial Innovation and Lessons for India*, Vol. 25 (5), 03 Feb.

⁴ Marshall John F, and Bansal Vipul K (1992), *Financial Engineering: A Complete Guide to Financial Innovation*, New York Institute of Finance, New York.

Miller (1992)⁵ moliyaviy innovatsiyalarning kelajakdagi istiqbollari va moliyaviy vositachilikning funksional xususiyatini yoritib bergan. Uning tadqiqot ishi moliyaviy innovatsiyalar, kapitalning arzonligi, moliyaviy risklarni kamaytirish moliyaviy vositachilikni yaxshilash va bu orqali farovonlikni oshirish haqida bo'lgan.

Tufano (2003)⁶ o'z tadqiqotini yangi qimmatli qog'ozlari moliyaviy mahsulot innovatorlari tomonidan birinchilardan foydalana oladimi kabi savolga javob izlash bilan boshlagan. U 1974-1986 yillarda investitsiya banklari yaratgan yangi mahsulotlariga raqobatchi mahsulotlar paydo bo'lgunga qadar yuqori narxlar belgilamagan va uzoq muddat raqobatchilardan past narx belgilanganini aniqlagan. U moliyaviy innovatsiyalar uchun standard tushuntirish beradi va moliyaviy innovatsiyalar ma'lum darajada bozor samarasizligi yoki nomukammalligini tuzatishga yordam berishini ta'kidlaydi. Misol uchun bozorlar to'liq bo'lmagan holatda, moliyaviy innovatsiyalar risklarni taqsimlash imkoniyatini yaxshilashi mumkin. Moliyaviy innovatsiyalar uchun boshqa muhim motivlar soliqlarni kamaytirish yoki moliyaviy qoidalar ta'siridan qochish bo'lishi mumkin. Chunki ikkala emitent va xaridorlar innovatsiyani muvafaqqiyatli joriy etishlari uchun undan foyda olishlari kerak, moliyaviy innovatsiyalarning an'anaviy nuqtai nazari bunga nomuvofiqdir.

Natijalar. Moliyaviy va xususan

⁵ Miller Merton H (1992), "Financial Innovation: Achievements and Prospects," *Journal of Applied Corporate Finance*, Vol. 4 (winter), 4-12.

⁶ Tufano P, (2003), "Financial Innovation," Harris M, Stulz, R. (Ed.), *Handbook of the Economics of Finance*, Vol. 1a (Corporate Finance), Elsevier, 307– 336.

kredit bozorining ekotizimi o'zgarish holatida. Sababi, FinTechning yangi ishtirokchilari doimiy ravishda bozorga kirib bormoqda, an'anaviy moliyaviy xizmatlar provayderlari esa ilg'or texnologiyalarni raqamlashtirish va o'sib borayotgan iste'molchilar talabiga moslashishga harakat qilmoqdalar. Raqobat nuqtai nazaridan, an'anaviy moliya institutlari va FinTech kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlik uzoq muddatli o'sishning eng yaxshi yo'li bo'lishi mumkinligi kutilmoqda. Shuningdek, bank sektori va FinTech o'rtasidagi o'zaro integratsiya ko'plab ijobiy o'zgarish va rivojlanishlariga turtki bo'lishi yil sayin ochiqlashib bormoqda. Muvaffaqiyatli hamkorlik ko'p jihatdan an'anaviy moliya institutlarining quyidagi sohalarda barqaror muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan sheriklikka nomzodlarning xususiyatlarini aniqlash qobiliyatiga bog'liq bo'ladi: odamlar, biznes, moliya, texnologiya, xavflarni boshqarish.

Banklarning FinTech kompaniyalari bilan hamkorligining muvaffaqiyati mijozlar tajribasini yaxshilash, hamda operatsion xarajatlarni kamaytirish maqsadida bir-birlarining kuchli va zaif tomonlarini tushuna oladigan tashkilotlarga bog'liq. Ushbu hamkorlik Google, Amazon, Facebook va Apple (GAFA) kabi kompaniyalar yoki Alibaba va Tencent kabi kompaniyalar tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yanada kuchli raqobat tahdididan pozitsiyalarni himoya qilish uchun shaxsiylashtirish, tezlik, kontekstual™ va uzluksiz yetkazib berish darajasini ta'minlay oladimi yoki yo'q kabi savollarga yechim bo'la olishi kerak.

Infratuzilmaga asoslangan texnologiya (ochiq amaliy dasturlash

interfeyslari (API) potentsiali orqali moliyaviy xizmatlar sohasini o'zgartirib kelmoqda. Mashinaviy ta'lim (Machine learning) va robotlashtirilgan jarayonlarni avtomatlashtirish (RPA), chat-botlar va taqsimlangan daftar texnologiyasining (DLT) afzalliklari orqali ortib borayotgan iste'mol ma'lumotlarini qayta ishlash va tahlil qilish qobiliyati bilan birgalikda moslashuvchanlik, samaradorlik va aniqlik kabi imkoniyatlar yaratilmoqda.

FinTech kompaniyalari tomonidan raqobatning yangi ta'siri tufayli moliya institutlariga bosimning quyidagi asosiy omillarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) Yangi biznes modeli. FinTech kompaniyalarining paydo bo'lishi peer-to-peer (P2P) to'lovlar va kreditlash, kraudsorsing yechimlari, ijtimoiy media skoring modellari va moliya bozoriga ta'sir ko'rsatadigan boshqa innovatsiyalar kabi yangi biznes modellarining paydo bo'lishini o'z ichiga olganligi;

2) Tezlik va samaradorlik. Ommaviy ishlov berish, FinTech kompaniyalari tomonidan taqdim etilgan tezlik va arzonlik tarqatish, yetkazib berish va innovatsiyalar an'anaviy moliyaga bosim o'tkazmoqda. Haqiqiy vaqtda yangilanishlar, proaktiv ogohlantirishlar va tezkor innovatsiyalar mijozlar tajribasini yaxshilashning ajralmas qismiga aylanib bormoqda;

3) Oshkoralik (shaffoflik). Raqamli va iste'molchilarga qaratilgan taklif bilan FinTech kompaniyalari an'anaviy bank tashkilotlariga qaraganda ancha past xarajat tuzilmasiga ega. Bu ko'pchilik FinTech kompaniyalariga xizmatlarni ancha arzon narxlarda taklif qilish va narxlarni aniq ko'rsatish imkonini beradi;

4) Shaxsiylashtirish. Raqamli tashkilotlar Amazon kabi qo'llaniladigan

masofaviy platformalarga o'xshash shaxsiylashtirilgan yechimlarni taqdim etish uchun ko'proq mos keladi. Ya'ni bu orqali xizmat yoki mahsulotni muayyan shaxslarga moslashtirish va ular haqidagi ma'lumotlarni, jumladan veb-sahifalar tarixini ko'ra olishni o'z ichiga oladi;

5) Marja bosimi va komissiyalar. FinTech kompaniyalari banklar, filiallar va eski back ofis jarayonlari bilan bog'liq belgilangan xarajatlar kabi eski infratuzilmaga ega emaslar. Avtomatlashtirish, sun'iy intellekt va robotlashtirilgan jarayonlarni avtomatlashtirishning joriy etilishi yuk tashish, ma'lumotlar almashish xarajatlari bo'shlig'ini to'ldirib kelmoqda;

6) Prognozli modellashtirish. Ko'pgina FinTech firmalarining asosida ko'p mavjud tashkilotlardan farqli ravishda keng tarqalgan prognoz va tahlil vositalaridan foydalanish qobiliyati yotadi. Bu FinTech kompaniyalariga mijozlar profili va xatti-harakatlari asosida takliflar va aloqalarni maqsadli qilish va shaxsiylashtirish imkonini beradi;

7) Raqamli taqsimot. FinTech kompaniyalarining o'sishi an'anaviy banklar mahsulot va xizmatlarini taqsimlashni qayta ko'rib chiqishga undamoqda. "Doimiy ishlaydigan" raqamli qurilmalarning quvvati va arzonligidan foydalangan holda, FinTech kompaniyalari dizaynning soddaligi va iste'molchilar tobora ko'proq kutayotgan kontekstuallik kuchini oshirib kelmoqda;

8) Xizmat ko'rsatishning kengayishi. Yetarlicha xizmat ko'rsatilmagan segmentlarga arzonroq tuzilma bilan kirish FinTech kompaniyalarini klassik bank tashkilotlaridan farqlab kelmoqda. Ya'ni an'anaviy banklar tomonidan xizmat ko'rsatilmagan bozor segmentlariga

qulay va arzon xizmatlarni taqdim etishlari mumkin;

9) Operatsion samaradorlik. FinTech kompaniyalari tomonidan qo'llaniladigan raqamli texnologiyalar tomonidan taqdim etilgan narx afzalliklaridan tashqari, butunlay qayta ishlab chiqilgan operatsion back-ofis sezilarli raqobatdosh ustunlikni ta'minlaydigan ta'minot zanjirini optimallashtirish va mahsulotni ishlab chiqishga olib keldi. P2P to'lovlari uchun mobil qurilmalarda taqdim etilgan ipoteka krediti ilovalari bilan FinTech kompaniyalari ichki samaradorlik va tashqi soddalik muhitini yaratib kelmoqda;

10) Kengaytirilgan ma'lumotlar tahlili. Kengroq ma'lumotlar manbalar to'plami bilan birgalikda ilg'or tahlillar FinTech kompaniyalariga risklarni boshqarish va underaytingning yangi modellarini sinab ko'rish imkonini berdi, bu esa xarajatlarni kamaytirishga, pul mablag'larining kengayishiga va samaradorlikni oshirishga olib kelmoqda;

11) Konstruktiv fikrlash. Foydalanish uchun qulay foydalanuvchi interfeyslari mijozlar tranzaksiyalarini tez va qulay qiladi, ma'lumotlarga asoslangan tushunchalar esa shaxsiylashtirilgan va kontekstli takliflar bilan mos keladi. Mijozlarga o'z firmalari bilan innovatsion usullarda o'zaro aloqada bo'lishga yordam berish uchun hozirda kengaytirilgan va virtual haqiqiy yechimlar, biometrik yutuqlar ishlab chiqilmoqda.

Ko'pgina FinTech kompaniyalarining asosiy farqlovchi belgilari - innovatsion fikrlash, moslashuvchanlik (moslashish tezligi), iste'molchiga qaratilgan istiqbol va raqamli texnologiyalar asosida qurilgan infratuzilma hisoblanadi. Shubhasiz, ko'pchilik an'anaviy moliya institutlari

bunday afzalliklarga ega emas. Aksariyat FinTech kompaniyalari brend xabardorligi va ishonchi tufayli yetarli darajada raqobat qobiliyatiga ega emas. Ya'ni, ularda kapital, muvofiqlik va tartibga solish bo'yicha bilimlar, shuningdek, tijorat banklarining kuchli tomonlari kabi rivojlangan filiallar tarmog'i yetishmaydi.

Muvaffaqiyatli FinTechlarning aksariyati tor funksiyalarga yoki yuqori

talab mavjud segmentlarga (yoki an'anaviy moliya institutlari tomonidan kam xizmat ko'rsatadigan segmentlarga) e'tibor qaratishgan, ammo o'z-o'zidan daromadli ravishda kengayishga harakat qilmoqdalar. An'anaviy moliya institutlari esa keng mijozlar bazasiga va katta kapitalga ega, lekin shu bilan birga ularning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi eski tizimlarga ega.

1-jadval

An'anaviy moliya institutlari va FinTech kompaniyalarining raqobatdosh ustunliklari⁷

An'anaviy moliyaviy tashkilotlar	xavflarni boshqarish
	Infratuzilma
	Tartibga solish
	Iste'molchining ishonchi
	Miqyosni tejash
	Brendning nomi
	Sarmoya
FinTech kompaniyalari	Manevrlik
	Innovatsiya
	Moslashuvchanlik
	Mijozning taassurotlari
	Yangi mahsulotlar
	Ma'lumotlarni qayta ishlash
	Xarajatlarni pasaytirish (narx)

⁷ muallif tomonidan tuzilgan

An'anaviy moliya institutlari va FinTech kompaniyalari o'rtasidagi munosabatlar raqobatdan hamkorlikka o'tmoqda. Muammo ikkala hamkorning foyda oluvchi atributlarini yo'qotish o'rniga, hamkorlik o'sishi mumkin bo'lgan muhitni yaratishdir. Asosiy to'siqlardan biri bunday hamkorlikni osonlashtirish uchun zarur bo'lgan imkoniyatlarni topa olishdir.

Yaqin hamkorlikni o'rnatish uchun asos sifatida mijozlar ehtiyojlariga e'tibor qaratish muhimligini ta'kidlash kerak. Ushbu e'tiborsizlik, haqiqiy iste'mol maqsadisiz «innovatsiyalar uchun innovatsiyalar» bo'lishi xavfi mavjud. To'g'ri tasdiqlash strategiyasi hali mavjud bo'lmasa-da, orqada qolish xavfini minimallashtirishga yordam beradigan ba'zi qadamlar mavjud. Bularga quyidagilar kiradi: iste'molchilar bilan

hamfikrlik, iste'molchilar ishonchini shakllantirish va qo'llab-quvvatlash, iste'molchi uchun soddalik; operatsion samaradorlikka intilish; raqamli imkoniyatlarga sarmoya kiritish, iste'molchi va biznes maqsadlarini moslashtirish (kelishtirish); moslashuvchan tamoyillarni moslashtirish, to'g'ri madaniyat va qobiliyatlarni rivojlantirish.

Muvaffaqiyatli hamkorlikka yagona yondashuv yo'q, chunki ishtirokchilar o'zlarining strategik maqsadlariga erishish uchun eng mos keladigan turli xil o'zaro ta'sir modellarini tanlaydilar. Eng keng tarqalgan o'zaro ta'sir modellari: oq yorliqlash (White labelling), ichki yechimlar va ilovalarni yaratish mahsulotlaridan foydalanish (API).

2-jadval

FinTech kompaniyalari o'rtasidagi mumkin bo'lgan hamkorlik sohalari⁸

Hamkorlikdan avval	Hamkorlik davrida
Sotib olish bo'yicha yetakchilikni ta'minlash (aksiyalar)	Hamkorlikdagi muvaffaqiyatsizliklardan himoya qilish (xedjirlash) rejalarini ishlab chiqish
Aniq biznes maqsadlarini belgilash	Doimiy monitoring
Boshida kutilgan taxminlarni muvofiqlashtirish	Manfaatdor tomonlar bilan o'z vaqtida muloqot qilishga intilish
Mavjud korxonalarining infratuzilmasiga kirish	Ko'rsatkichlarni ishlab chiqish va monitoring qilish
Madaniy muvofiqlikni ta'minlash	
Intellektual mulk huquqlarining ta'rifi	

⁸ muallif tomonidan quyidagilar asosida tuzilgan: 5G in industrial operations. How telcos and industrial companies stand to benefit // Capgemini [Elektron resurs] - Kirish tartibi: <https://www.capgemini.com>

Garchi ba'zi moliyaviy tashkilotlar tashkilot ichidan moliyaviy innovatsiyalarni rag'batlantirishga harakat qilsalar ham, ularning aksariyati tashqaridan inkubatorlar, akseleratorlar, xakatonlar va venchur kapital fondlari orqali ishlaydilar. An'anaviy moliyaviy institutlar bilan ishlashda FinTech kompaniyalarini eng katta tashvishga soladigan narsa bu ularning moslashuvchan emasligi va tez harakat qilish uchun kurashmasligidir.

Yirik banklarning top-menejerlarining fikriga ko'ra, hech qachon bank tashkiloti tuzilmasida startapni kiritmaslik kerak, chunki bu ularning qulashiga olib keladi. Ikkinchidan, yaratish uchun ko'p vaqt talab qiladigan ilg'or texnologiyalardan foydalanadigan qo'shimcha yechimlarni doimo izlash muhimdir. Uchinchidan, mijozlar tomonidan dolzarbli va qabul qilinishini izlash uchun sinov va tajriba o'tkazish kerak.

An'anaviy moliya institutlari bilan hamkorlikda FinTech kompaniyalarining samaradorligini oshirishga yordam beradigan quyidagi tavsiyalarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

- Moslashuvchanlikka e'tibor: FinTech kompaniyalari amaldagi an'anaviy tizimdagi konservatizm misollariga duch kelishlari mumkin. Shuning uchun ular an'anaviy tashkilotlarning o'tmishdagi odatlariga qaytmasligini ta'minlash uchun qo'shimcha e'tibor berishlari kerak;

- Rahbariyatning ishtiroki: innovatsiyalarning asosiy homiylari va kompaniya hamkorligini qo'llab-quvvatlashga intilayotgan manfaatdor tomonlar bilan muntazam va o'z vaqtida muloqotni rejalashtirish kerak.

- Proaktiv innovatsiyalar:

Innovatsiya jarayoni doimiy bo'lishi, bunda mijozning ehtiyojlariga sheriklik sarmoyasi kiritilishi kerak;

- Madaniyat dinamikasi: FinTech kompaniyalari va mavjud hamkorlar biznes va tartibga soluvchi o'zgarishlarga moslashgan madaniyatlarni yaratishga intilishlari kerak. Moslashuvchanlik va munosabatlarning har ikki tomonini tinglashga tayyor bo'lish kerak;

- Tartibga solish mas'uliyati: FinTech kompaniyalari hamkorlikka ta'sir qilishi mumkin bo'lgan muvofiqlik, qoidalar va litsenziyalash ma'lumotlarini doimiy ravishda kuzatib borishlari kerak;

- Boshqaruv nazorati va menejmenti: Boshqaruv va xizmatlar integratsiyasini moslashtirish FinTech va an'anaviy kompaniyalardan yagona qarashni va bu bilan biznes va IT o'rtasida yaqin aloqani talab qiladi;

- Xavflarni boshqarish: Ma'lumotlarga nisbatan yuqori hushyorlik talab etiladi. Model xavflari va biznesning barqarorligi ham to'g'ri tekshirilishi kerak;

- Moliyaviy innovatsiyalarning miqyosi: konsepsiyani isbotlash yoki eksperimental (pilot) bosqichida texnologik to'siqlarni aniqlash va olib tashlash innovatsiyalarni (tez) kengaytirishga yordam beradi. Raqamli imkoniyatlarning uzluksiz o'sishi va yangilanishi mahsulot va xizmatlarda moliyaviy innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va kengaytirish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Eng yaxshi hamkorlikda ham an'anaviy tashkilotlar va FinTech kompaniyalarining bank ekotizimida raqobatbardoshlik qobiliyati Google, Amazon, Facebook va Apple, shuningdek, Alibaba va Tencent kabi Big Tech kompaniyalari tomonidan qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Sababi, raqamli

platformalarda qurilgan ushbu Big Tech kompaniyalari samarali va operatsion xarajatlarni kamaytirish yo'llarini topdilar.

Katta hajmdagi mijozlar ma'lumotlaridan foydalanishni ta'kidlab (xulq-atvorni prognoz qilish va mijozlar tajribasini yaxshilash uchun) Big Tech kompaniyalari rivojlangan moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish uchun mijozlar ishonchini va yuqori ishtirokini jalb qilishlari mumkin. Bunga bank mahsulotlari va xizmatlarini yaxshilash uchun boshqa kompaniyalardan daromad o'tkazish imkoniyati qo'shiladi.

Katta ma'lumotlardan foydalanishga asoslangan yangi biznes modellarining paydo bo'lishi bilan FinTech tashkil etilgan moliyaviy vositachilar va ayniqsa banklarning barqarorligiga putur yetkazishi mumkin. Katta ma'lumotlar ilg'or hisoblash quvvatidan (jumladan, bulutli hisoblash, bulut orqali mobil saqlash va doimiy mavjudligini ta'minlaydigan mobil uskunalardan) foyda oladigan sun'iy intellekt (AI) algoritmlari yordamida qayta ishlanishi mumkin. Bu esa mashinaviy ta'lim kompyuterlarga dastursiz o'rganish imkonini beradi va chuqur o'rganish algoritmlari qatlamlari yordamida katta ma'lumotlardan ma'no chiqarishga harakat qilishni anglatadi. Yangi usullarni qo'llash natijasi moliyaviy vositachilik xarajatlarini kamaytirish va iste'molchilar uchun mahsulot sifatini yaxshilash bo'lishi mumkin. Misol uchun, FinTech xizmatlari kreditga layoqatlilikni yaxshiroq baholashga yordam beradi, shuningdek, mijozlar va ularning moliyaviy xizmat ko'rsatuvchi provayderlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi. Amerika Qo'shma Shtatlaridagi ipoteka bozorini misol

tariqasida oladigan bo'lsak, bu yerda soya banklari (ya'ni, bank bo'lmagan kreditorlar) ulushi 2007-2015 yillar davomida deyarli uch barobar oshdi. 2017-yil oxirgi holatiga ko'ra, FinTech kompaniyalari taklif qilingan bank kreditlarining qariyb uchdan bir qismini tashkil qilgan. An'anaviy banklar uchun tartibga solish yukining ortishi qisman ushbu davrda raqamli o'sishini tushuntiradi, dinamikaning boshqa qismi FinTechdan samarali foydalanish bilan izohlanadi. FinTech kompaniyalari katta ma'lumotlarga asoslangan takomillashtirilgan statistik modellardan foydalangan holda potensial qarz oluvchilarni yaxshiroq tekshirisha oladi va ipoteka xavfi, narxlarni tushirishni samarali baholashga qodir. Buning uchun ular mavjud ma'lumotlarni birlashtirishi yoki an'anaviy banklar kirish imkoniga ega bo'lmagan boshqa ma'lumotlar o'lchovlaridan foydalanishi mumkin. Hisoblangan foiz stavkalari FinTech qarz oluvchilari o'rtasidagi aloqa natijalaridagi o'zgarishlarning katta qismini hisobga oladi.

Munozara. Raqamli texnologiyalarni qo'llashdagi asosiy o'zgarishlar kreditlash, to'lov tizimlari, moliyaviy konsalting va sug'urta sohasida sodir bo'lib kelmoqda. Ushbu segmentlarning barchasida FinTech vositachilik xarajatlarini kamaytirish va moliyadan foydalanish hamda moliyaviy inklyuzivlikni oshirish imkoniyatiga ega. Samaradorlikni oshirishdagi ushbu ro'lning sabablaridan biri bank biznesining asosini tashkil etuvchi axborot nosimmetrikligini bartaraf etishga yordam berish potensialidir.

Shu bilan birga, FinTech kompaniyalari eskirgan texnologiyalarga va samarali operatsion dizayn

madaniyatiga ega emas. Bu ularga an'anaviy moliya institutlariga qaraganda ko'proq innovatsion salohiyatga ega bo'lish imkonini beradi. P2P kreditlash platformalari ko'pincha katta ma'lumotlardan foydalangan holda qarz oluvchilarni skrining algoritmlaridan kelib chiqqan holda biznes xavflari reyting bahosini taqdim etadi. P2P kreditlash Qo'shma Shtatlarda (rahbarlar orasida LendingClub va Prosper) va Buyuk Britaniyada (misol sifatida Zopa) tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda va bu iste'mol krediti bo'yicha boshqa Yevropa mamlakatlari Germaniya, Fransiya va Finlandiya kabilarni ham keltirishimiz mumkin. P2P kreditlash biznesi Xitoyda mashhur, ammo uning ro'li Yevropa Ittifoqida sezilarlidir. Shu bilan birga, Yevropa Ittifoqining kraudfanding platformalari Fransiyaga taqqoslaganda sezilarli darajada oshdi va Gollandiya, Italiya, Germaniya yetakchilikni qo'lga kiritdi.

Visa va MasterCard kabi banklarning tranzaksion harakatlari to'lovlar bozorida hamon hukmronlik qilmoqda, ammo to'lovlarda moliyaviy yangiliklar ko'pincha PayPal, Apple yoki Google kabi platformalar tarmog'i orqali keladi. Shuni ta'kidlash kerakki, mobil to'lov sxemalari joriy bank hisob raqamiga ega bo'lganlar ("The Economist" ma'lumotlariga ko'ra, ko'pchilik mobil telefonda foydalanish imkoniyatiga ega) ulushi past bo'lgan mamlakatlarda katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, har to'rt kishidan birining bank hisob raqami mavjud bo'lgan Afrikada ular yangi to'lov tizimlari, shuningdek, kichik kredit tarixiga ega bo'lgan iste'mol kreditlari uchun sinov maydoniga aylanmoqda.

An'anaviy to'lov tizimlari bitcoin kabi raqamli valyutalar tomonidan ham

buzilishi mumkin. Ushbu valyuta tizimlarida yoki kriptovalyutalarda shifrlash usullari Blockchain texnologiyasidan foydalangan holda valyuta birliklarini shakllantirishni tartibga soladi. Ushbu texnologiya umumiy foydalanish mumkin bo'lgan raqamli ma'lumotlar bazasidan iborat bo'lib, unda tranzaksiyalarni markazlashtirilmagan tarzda rekord bloklash tizimi yordamida tekshirish mumkin. Bu tranzaksiyani tekshirish uchun P2P tarmog'ining qiymatini (hech qanday vositachisiz) o'tkazishga imkon beradi, bunda ko'psonli kompyuterlar har bir tranzaksiyani ketma-ketlik bilan tasdiqlaydi. Potensial ravishda, blokcheyn texnologiyasi narxlarni qisqartirganligi sababli moliyaviy innovatsiyalarga yo'l ochishi sababli rivojlanishi mumkin. Ular, shuningdek, davlat yoki tijorat banki kabi ishonchli vositachi (vositachilik funksiyasi) ko'magisiz valyutaning mavjudligiga imkon beradi.

Robo-maslahatchilar, mijozlar ma'lumotlari asosida investitsiya qarorlarini ishlab chiqaruvchi va mashinani o'rganish vositalaridan foydalanadigan kompyuter dasturlari mabag'larni boshqarish bo'yicha maslahatchilarga arzon alternativ hisoblanadi. Bundan tashqari, to'g'ri dasturlash bilan Robo-Maslahatchilar ortiqcha vaqt sarfi uchun ajoyib yechim bo'la oladi.

Chakana banklarning ikkita asosiy raqobatdosh ustunliklari mavjuddir. Banklar omonat va davlat sug'urtasidan foydalanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda davlatdan arzonroq qarz olishlari mumkin. Shuningdek banklar bir qator mahsulotlarni taklif qilish mumkin bo'lgan (barqaror) mijozlar bazasiga imtiyozli kirish huquqiga ega.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish joizki, IT va bank xizmatlaridan (Internet, mobil, raqamli) foydalanish va FinTech raqobatchilarining paydo bo'lishi chakana bank faoliyatini qanchalik raqobatbardosh qiladi, degan savol ochiqlicha qolmoqda. Birinchidan, banklar va to'lov tizimlari provayderlari yoki kraudfanding platformalari kabi yangi ishtirokchilar o'rtasidagi raqobat uchun FinTech xizmat ko'rsatuvchi provayderlarni oson tartibga solish muhim bo'ladi. Biroq, biznesni tartibga solish yangi ishtirokchilar uchun tashkil etilgan banklar tomonidan boshqariladigan infratuzilmaga kirishni qiyinlashtirishi mumkin (masalan, uchinchi tomon to'lov tizimlari mijozlar ma'lumotlarini himoyalanganligi sababli to'siqlarga duch kelishi mumkin). Ikkinchidan, elektron bank faoliyati ekzogen va endogen bosqichlariga duchor bo'ladi. Umuman olganda, raqamli texnologiyalar tomonidan taqdim etilgan narxlarning shaffofligini oshirish aralash dinamik narx

ta'siriga ega bo'lishi mumkin. Yangi ishtirokchilar va amaldorlar uchun strategiyalar investitsiyalarning jiddiyligiga, kompaniyaning raqobatiga va bozordagi raqobat strategik qo'shimchalarni o'z ichiga oladimi-yo'qligiga bog'liq bo'ladi. Sanoatning asosiy xususiyatlariga qarab, mansabdor shaxs kirishni ta'minlash yoki oldini olishga qaror qilishi mumkin.

Moliyaviy innovatsiyalar juda ham zarur va bu ayniqsa bank tizimiga kirib kelishi ijobiy ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham banklarda samarali transformatsiya jarayonini shakllantirishda FinTechlar va moliyaviy innovatsiyalar muhim ro'l o'ynaydi. Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar tajribalarini o'rganish asnosida, bank sektori nafaqat operatsion samaradorligi va mijozlar etiyojini qondirish darajasini oshirishi, balki moliyaviy innovatsiyalar orqali umumiy iqtisodiy o'sish va moliyaviy inklyuzivlikka sezilarli hissa qo'sha oladi deyish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Smith Clifford W, Jr., Smithson Charles W, and Wilford D. Sykes (1990), *Managing Financial Risk*, Harper Collins Publishers.
2. Richard M. Levich, Gerald Corrigan E, Charles S. Sanford Jr, George J. Votja (1988), "Financial Innovations in International Financial Market" in *The United States in the World Economy*, Editor: Martin Feldstein, University of Chicago Press, ISBN: 0-226- 24077-0, 215 – 277
3. Verghese, S K (1990), *Financial Innovation and Lessons for India*, Vol. 25 (5), 03 Feb.
4. Marshall John F, and Bansal Vipul K (1992), *Financial Engineering: A Complete Guide to Financial Innovation*, New York Institute of Finance, New York.
5. Miller Merton H (1992), "Financial Innovation: Achievements and Prospects," *Journal of Applied Corporate Finance*, Vol. 4 (winter), 4-12.
6. Tufano P, (2003), "Financial Innovation," Harris M, Stulz, R. (Ed.), *Handbook of the Economics of Finance*, Vol. 1a (Corporate Finance), Elsevier, 307– 336.
7. <https://www.capgemmi.com>
8. <https://ideas.repec.org>